

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSONIYLIK FAZILATLARI

Hazratqulova Zilola

Jizzax davlat pedogogika universiteti talabasi

Abdullayev Muhammadyusuf

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub “sog’inch” hikoyasi va undagi g’oyaviy badiiy xususiyatlar hamda insoniylik fazilatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Azim, Ismat, boychechak, ov, kaklik.*

Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. Shukur Xolmirzayevning hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, uning ijodidagi kop jihatlari e'tiborimizni tortadi va uning asarlari bosh mavzusi inson va tabiat ekanligini anglashimiz mumkin. Bu munosabatlar haqida adibning o'zi iqror tarzida yozgan ushbu so'zlaridan ham anglash mumkin: «Men Boysun rayonida tug'ilganman. Boysun - tog'lik joy. O'n ikki yoshimda o'zim yolg'iz miltiq ko'tarib ovga chiqib ketardim. So'ngra, bu yerda yashirishning hojati yo'q: qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi ko'rardim: masalaning mohiyatini tushunishni».[1; 1] Buning isbotini uning hikoyalarini o'qibgina anglashimiz mumkin. Shukur Xolmirzayevning “sog’inch” hikoyasini o’qir ekan, kitobxon yozuvchining tabiat tasvirini va insoniylik fazilatlatini qanchalik mahorat bilan tasvirlaganining guvohi boladi. “Soginch” hikoyasida ilgari surilgan bosh g’oya insoniylik, do’stlik munosabatlari yetakchilik qiladi. Hikoya bosh qahramoni Azim tabiatan ko’ngli bosh, ta’sirchan yigit sifatida gavdalanadi. U ancha yildan buyon shaharda yurganligi uchun unda shahar odamlariga xos ishchanlik, sovuqqonlik va biroz takabburlik paydo bolgan edi. Uning do’sti Ismat esa aksincha yoshligida qanday bolsa shunday, qishloqning oddiy va sodda yigitlaridan edi va Azimjonni juda ham yaxshi ko’rar edi. Uning qishloqqa kelishini va bolalikdagi kabi ovga chiqishni birga vaqt otkazishni intizorlik bilan kutar edi. Ismatning Azimga bolgan iliq munosabatini uning o’nta yozgan xatiga bitta javob xati kelsa ham beg’uborlarcha tipirchilab qolishi va uni xotiniga korsatishidan anglashimiz mumkin. Yozuvchi shu orinda ularning yoshligiga murojat etar ekan Azim direktor oilasida Ismatjon esa qorovul oilasida katta bolganligi va yoshligida Azimjon Ismatnikiga kelib ovga taklif qilishi va vaqtlarini maroqli otkazganini aytib otadi. Hozir esa aksincha Ismat Azimnikiga boradi, uning shahardan kelishini intizorlik bilan kutadi ammo Azimda esa bolalikdagi do’stlik, beg’uborlik kabi hislatlarning hech qaysisi yoq edi. Azim qishloqqa kelganda ular ovga chiqishadi...ov ham endi oldingiday emas edi chunki Azimda ov qilish mahorati allaqachon yoqolgan edi balki hoxish ham. Asosiy ovni Ismatjon qilar lekin taqsimotga kelganda asosiy o’lcha Azimniki boladiga

boldi. Ismatjon bolsa Azimning “haliyam zo’rsiz Ismatjon” degan gapiga mukofot olganday boshi ko’kka yetar edi. Azim shaharga ketishi bilan Uni unitar edi. Qayerda bolmasin Ismat unga xat yozar, qishloqqa kelmasa telegramma yuborar edi. Bir kuni Azimjon anglab yetadiki uni bu hayotda bolaligi bilan qishlogi bilan boglab turgan narsa yagona Ismatjon ekanligini. Bir manoda hayotiga qaysidir rangni qoshib turuvchi desak ham boladi. Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning ushbu hikoyasi ozining tepada keltitib otgan fikrlari bilan chambarchas bogliqligi guvohi boldik. Ismatjon timsolida biz qishloq ahlining qanday beg’ubor, mehribonva shu kabi insoniylik fazilatlarining yuqori darajada ekanligini korishimiz mumkin. Yozuvchi hikoya yozar ekan “soginch” deya nomlab bolalik choglariga murojat etadi. Yozuvchi kitobxonga dunyo tashvishlari bilan ichingizdagi insoniy fazilatlarni o’chirib, yaqin insonlarni unutib qoymaslikni takidlamogda. Shukur Xolmirzayev ushbu hikoyada dostlik tushunchasini juda mahorat bilan ochib bergan. Haqiqiy, chin, hech qanday manfaatlarga asoslanmaydigan, xuddi bolalikdagiday, bolalardek mehr taftiga burkangan do’stlik deya Ismatning, do’sti Azimga bo’lgan muhabbatida ham ko’rishimiz mumkin. Shu va shu kabi inson qadri, har zamonda ham ulug’lanuvchi, do’stga sadoqat, ne’matni ulug’lash fazilatlarini o’z hikoyalari qahramonlari xarakteriga singdira olgan adib Shukur Xolmirzayev har doimgiday kitobxonlar tahsiniga sazovor bo’la oldi. Shukur Xolmirzayevning nafaqat “sog’inch” hikoyasida balki uning barcha hikoyalardan anglashimiz mumkinki, yozuvchi inson psixologiyasini, ruxiyatini juda yaxshi anglagan va buni o’z asarlariga tushurgan. Asar qahraminlarining ov ishqibozi ekanligi, bahor havosi va birgina boychechak Azimga bir talay xotiralarini esga soladi. Yozuvchining birgina kichik hikoyasidan ham olam olam zavq olasan kishi. Aytishadiku, yozsang, shunday yozki, uni o’qib kitobxon o’ziga ibrat olsin, deya. Shukur Xolmirzayev ana shunday buyuk yozuvchilardan!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuvaldieva G. Kholmirzaev’ stories way;
2. O. Madayev, T. Sobitova. Sharq, Toshkent, 2010-yil;
3. Qo’shjanov. M. “O’zbekning o’zligi”. Toshkent. 1994;